

"VATANPARVALIK" TUSHUNCHASINI BAHOLASH MAZMUNI VA МОHIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14195081>

Rajabov.R. R

*dotsent, podpolkovnik O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Qurollanish va otish kafedrasi katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya

Yangi O'zbekiston jamiyati talablariga mos yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsaddan natijaga yo'naltirilgan hamda normativlik, izchillik, universallik xususiyatiga ega funksional modeli ko'nikma va malakaga asoslangan ta'llim texnologiyalar mazmunini kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik va umummadaniy tayanch kompetensiyalar bilan bog'liq xolda izohlash asosida ishlab chiqilganligi to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar

barqaror, ma'naviyat, ma'rifikat, vatanparvar, jamiyat, xalqaro, malaka, shaxs.

Аннотация

функциональная модель воспитания молодежи в духе духовности, просвещения и патриотизма в соответствии с требованиями нового узбекского общества, ориентированная от цели к результату и характеризующаяся нормативностью, системностью, универсальностью. На основе интерпретации развиваются развитие как личности, социально активной гражданственности и универсальных базовых компетенций.

Ключевые слова

устойчивый, духовность, просвещение, патриот, сообщество, интернационал, компетентность, личность.

Annotation

functional model of education of young people in a spirit of spirituality, education and patriotism in accordance with the requirements of the new Uzbek society, oriented from the goal to the result and characterized by normativeness, consistency, universality. work with, self-development as a person, socially active

citizenship and universal basic competences are developed on the basis of interpretation.

Key words

sustainable, spirituality, enlightenment, patriot, community, international, competence, personality.

O'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasi va ta'limi masalasi barcha davrlarning eng muhim va dolzARB mavzusi bo'lib kelgan. Ma'rifatparvar vatandoshimiz Abdulla Avloniyning bundan yuz yil oldin "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan fikri har bir davr uchun ahamiyatli bo'lib qolaveradi. Darhaqiqat, hozirda tarbiya masalasi chin ma'noda hayot-mamot masalasiga aylanib ulgurdi. Dunyo hamjamiyatida ko'pgina mamlakatlar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratmayotgan bo'lsa-da, ammo globallashuv jarayonlari va uning oqibatlari vatan tinchligi va farovonligi, xalqlar birdamligi va hamjihatligini ta'minlashda insonlar, xususan, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatning xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi - shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi, ta'lim tizimining tarbiyaviy yo'g'rilganligi holatiga, jamiyat a'zolarida vatanparvarlik, ma'naviy madaniyat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularining shakllantirilganligida, mafkuraviy immunitet hosil qilinganligida o'z ifodasini topadi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish maqsadida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash; demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega tashabbuskor, shijoatli, el-yurt manfaati yo'lida bor kuch-g'ayrati, bilim va salohiyatini safarbar qiladigan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yoshlar safini kengaytirish; yoshlarning zamонавиy kasb-hunarlarni puxta egallashi uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ularni kichik biznes

va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, tashabbuslarini rag'batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashish; yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g'oyalarini keng targ'ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirish; yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarda tahsil olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish kabilar alohida e'tirof etilgan.

Ma'lumki, Vatanni himoya qilishda davlat funksiyalarining asosiy mazmuni bu agressiya holatida qurolli himoya va tinchlik vaqtida har qanday agressiyaga zarbani berishni kafolatlovchi Qurolli Kuchlarni doimiy jangovor tayyorgarlikda ushlab turishdir. Shundan kelib chiqadiki, davlat mexanizmini ajralmas bo'lagi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga mamlakat mudofaasini ta'minlash javobgarligi topshiriladi. Demak, mamlakatimiz yoshlarining katta qismi bo'lgan talabalarda "Harbiy chaqiriqqacha tayyorlov" o'quv predmetlarini o'qitish mobaynida mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etadigan, xalq manfaatlariga sadoqat bilan xizmat qiladigan bilimli, tashabbuskor, ishbilarmon, halol va fidoyi yoshlarni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish yetakchi vazifalar qatoridan o'rinn egallaydi. Talabalar ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va bu xislatlarning rivojlanganlik darajasini muntazam tahlil qilib borish zarurati mavjudligini qayd etish joizdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 125-moddasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini yaratish va umumiylar harbiy munosabatlarni o'rnatish maqsadlari aniq ko'rsatilgan bo'lib, unda o'zbek xalqining, mamlakat suvernitetining va hududiy yaxlitligini himoya qilish muhimligi qayd etilgan⁷⁷.

Qurolli Kuchlar bilan bir qatorda Vatanni himoya qilish funksiyalarini boshqa davlat organlari ham bajarmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'grisida"gi qonunning 1-moddasida ko'rsatilgandek, davlat mamlakatga

⁷⁷O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent, 2014, 125-modda

xavfsizlik va mudofaani ta'minlaydi, respublika va xalqning tinch hayotini himoyasini qurolli Kuchlar ta'minlaydi. Ma'lumki, mamlakatning mudofaa qudrati o'suvchan birlikda olingan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma'naviy-siyosiy va harbiy potensialiga asoslangan bo'lib, Davlat boshqaruv va hukumat organlarining vakolatlari, Davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning burchlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ko'rsatilgan Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari asosida amalga oshiriladi. Buning asosida siyosiy, iqtisodiy harbiy hukmronlikning birlik prinsipi yotadi. Bu organlarning vakolatlariga mamlakat xavfsizligini ta'minlash va mudofaa qudratini oshirish, uning mudofaa potensialini rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi mudofaasida harbiy qurilishning muhim yo'naliшlarini aniqlash bo'yicha masalalarni ko'rib chiqish va yechish kiradi⁷⁸. Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasi davlat hukumatining yuqori organi sifatida shu xususida Vatanni himoya qilish masalalari bo'yicha ham katta vakolatlarga ega.

Vatanparvarlik - o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O'zbek diyorida, tarixda ko'p marta bo'lganidek, yana yangidan o'zimizning betakror va ilg'or, iqtidorli va eng muhimi - insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etilmoqda.

Butun jahonga mashhur bo'lgan Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, at-Termiziyy, Ahmad Yassaviy, Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa ko'pgina mutafakkirlarning pedagogik qarashlarida vatanparvarlik, Vatanga muhabbat tuyg'usi keng talqin qilingan.

O'zbekistonning kuch-qudrat manbai-xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Umuminsoniy qadriyatlar adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va vatanparvarlik bo'lib hisoblanadi. Xalqimiz bu qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab - asrab kelmoqda.

Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etib, o'sib kelayotgan avlodning barcha ezgu imkoniyatlarini unda namoyon qiladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, keksa avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Bizning davlatimiz mutaxassislar tayyorlashning ilg'or jahon tajribasini faoliyatga keng tatbiq etadi. Avvalo, O'zbekistonning o'zida yuqori sifatli ta'lim uchun sharoitlar yaratadi. Bizning xalqimizning doimiy fazilati bo'lgan haqiqatni bilish yo'lidagi sabot fan, texnika,

⁷⁸O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi qonuni.-Toshkent, 2017, 1-modda

texnologiya, boshqaruv va informatikada erishilgan jahon yutuqlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda respublikadagi oliy ta'lif tizimida yangi avlod darsliklari yaratilmoqda, ta'lif jarayonida faol o'qitish metodlaridan foydalanilmoqda, ammo talaba shaxsi, uning bilimga intilishi, mustaqil mushohada qilishi, ma'naviy madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari, vatanparvarlik darajasini baholash kabi masalalar dolzarb muammo bo'lib qolaveradi, chunki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy-axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlikdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shermatova U. O'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari (Cho'lpon ijodi misolida): Ped. fan. bo'y. fal. fok.diss. avtoref. Chirchiq, 2021.-51 b.
2. E.Yusupov Milliy goya va mafkura: moxiyati, ijtiomiy-tarixiy ildizlari, axamiyati. Shimkent. 2001.B- 37.
3. Egamberdiev R.I "Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari T.: "Fan va texnologiya" 2020.- B-173.
4. Ergashev I. "Milliy g'oya va targ'iboti texnologiyalarining shartsharoit va omillari" (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari) T.: 2015 yil, 7 bet.
5. Ergashev I., Berdaliev N., Davletova M., Mahammadjanov G., Bo'tayorov O. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2008.-B-19
6. Ermatov H. "Tarix. Tafakkur. Madaniyat" T., "Akademnashr" 2013. B-93.
7. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiev N.Ye. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. T.: Cho'lpon NMIU, 2018. B-539.
8. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: "Movaraunnahr", 2016. -B.5.